XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI HOKIMINING

# QARORI

220500, Urganch tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy, telefon: (62)35-21-649, faks: 35-21-991

2022 - yil 18 - may 499-12-173-Q/22 Urganch tuman hokimligi

## Urganch tumanida transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

**QAROR QILAMAN:**

1. Urganch tumanida piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, Urganch tumani 4P159-sonli Urganch-Shovot avtomobil yo‘lining 1-2 km.lar oralig‘iga “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Urganch tuman IIB (G‘.Sharipov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Qalandarov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Nurmetov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan manzilga “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasinlar va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Urganch haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xo‘jaev zimmasiga yuklatilsin.

**Урганч туман ҳокими** **Ф.Шарипов**